

Olmaliq sh

«24» 01 2011 yil

Bundan buyon "BUYURTMACH" deb ataluvchi "49- maxtab- ustama" nomidan nizom asosida faoliyat olib boruvchi "M. Shukurmatov" bir tomondan va bundan buyon "YETKAZIB BERUVCHI" deb ataluvchi "Oybek" xchi" nomidan nizom asosida faoliyat olib boruvchi "T. Yuldashev" boshqa tomondan ushbu shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar.

1. SHARTNOMA PREDMEDI

1.1. Ushbu shartnomaga asosan Buyurtmachi tovarni qabul qiladi va to'laydi, Yetkazib beruvchi esa quyidagi shartlarga muvofiq yetkazib beradi:

№	Tovarlarning nomi	O'l. bir.	Miqdori	Narxi QQS bilan	Umumiy summasi QQS bilan
1	Mol go'shti	kg	<u>800</u>	<u>58000</u>	<u>46400 000</u>
2					
3					
4					
<u>jami</u>					<u>46400 000</u>

1.2. Shartnomaning umumiy summasi 46400 000 (kuzib o'tir ulmaliq shartnomasi) tashkil qiladi

2. YETKAZIB BERISH VA HISOB- KITOBLAR SHARTLARI

2.1. "Buyurtmachi" mazkur shartnomani g'aznachilik bo'linmasida ro'yxatga olingan kundan boshlab 10 (o'n) kalendar kuni ichida qonunchilikka muvofiq, shartnoma summasidan 30% miqdorida oldindan to'lash majburiyatini oladi, qolgan 70% ni tovarni olgandan so'ng 3(uch)kalendar kuni ichida qabul qilish- topshirish dalolatnomasi, hisob-faktura va v.b. asosida to'laydi.

2.2. "Yetkazib beruvchi" avans mablag'lari Yetkazib beruvchining tegishli hisobvarag'iga kelib tushgan vaqtdan boshlab 5 (besh) kalendar kuni ichida tovarni yetkazib berish majburiyatini oladi.

2.3. "Yetkazib beruvchi" amaldagi GOST ga muvofiq tovarni yetkazib berishi shart.

2.4. "Buyurtmachi" tovarlarni qabul qilishda "Yetkazib beruvchi" ishtirokida olinayotgan tovarlarning to'liqligini va sifatini savdolarni o'kazish to'g'risidagi e'londa (buyurtmanomada) ko'zda tutilgan boshqa talablarga muvofiqligini tekshirish shart.

2.5. Agar mazkur shartnoma bilan boshqa xollar ko'zda tutilmagan bo'lsa, tovarlarni tashish va tushirish bo'yicha barcha xarajatlar Yetkazib beruvchi xisobidan amalga oshiriladi.

2.6. Buyurtmachining roziligiga ko'ra Tovar muddatidan oldin yetkazib berilishi munkun.

2.7. Yetkazib berilgan Tovar bevosita Buyurtmachining mas'ul xodimlari tomonidan dalolatnoma bo'yicha qabul qilinadi va unda yetkazib berilgan tovarlarning miqdori, uning sifati ko'rsatiladi.

2.8. Mazkur shartnomada ko'zda tutilgan tovarlarni yetkazib berish, mazkur shartnomaga muvofiq amakga oshiriladi.

3. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. Buyurtmachining huquqlari:

Yetkazib beruvchidan shartnomani bajarish uchun zarur bo'lgan davlat standartlari va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;

Buyurtmachining hisobidan tovarlar tashib keltirilganda, Yetkazib beruvchidan transport xarajatlarini qoplab berishni talab qilish, agar mazkur shartnomaning shartlarida boshqa hollar belgilanmagan bo'lsa;

Yetkazib beruvchidan joylashtirilgan buyurtmanomaga ko'ra mazkur shartnomaga muvofiq, tegishli sifat, assortiment bo'yicha tovarlarni yetkazib berishni talab qilish;

Sifatsiz tovar yetkazib berilganda o'z ixtiyoriga ko'ra quyidagilardan birini talab qilish:

- tegishli sifatdagi shunga o'xshash Tovar bilan almashtirib berish;

- kamchiliklarni beg'araz bartaraf etish;

- Yetkazib beruvchidan mazkur shartnoma shartlarini bajarmaganligi yoki tegishli darajada bajarmaganligi natijasida yetkazilgan zararni qoplab berishni talab qilish.

3.2. Buyurtmachining majburiyatlari:

- mazkur shartnomaga muvofiq o'zining joylashtirgan buyurtmanomasi bo'yicha yetkazib berilgan tovarlarni qabul qilish;

- tovarlarning qiymatini mazkur shartnomada belgilangan narxda va muddatda to'lash.

Yetkazib beruvchi quyidagi xuquqlarga ega: